где η — эффективность удаления, %; Свх — концентрация вещества до очистки; Свых — концентрация после очистки. Поскольку рассмотренные исследования проводились при разных исходных характеристиках сточных вод и режимах эксплуатации, результаты представлены как описательное сопоставление. Они не рассматриваются как прямое ранжирование технологий.

Результаты и обсуждение

В исследовании Hou и соавторов гибридный биореактор с носителями биоплёнки обеспечил удаление ХПК на 91,5 %, аммонийного азота — на 96,5 %, общего азота — на 60,9 % [1]. Различие между показателями удаления аммонийного и общего азота показывает, что преобразование аммония не всегда приводит к полному удалению азота из системы. Для снижения общего азота необходимы последовательные процессы нитрификации и денитрификации, при которых азот переводится в газообразную форму и удаляется из воды.

Al-Aboodi и соавторы изучали комбинированную систему A/O-MBBR. При соотношении воздуха и воды 7:1 были получены показатели удаления ХПК 95,56 %, аммонийного азота 97,27 %, общего азота 78,67 % и общего фосфора 84,49 % [2]. Эти результаты демонстрируют потенциал комбинирования аноксидной и аэробной зон с подвижными носителями биоплёнки. Вместе с тем приведённые значения характеризуют конкретный экспериментальный режим и не могут без дополнительной проверки переноситься на установки другого масштаба.

Для мембранного биореактора Zhou и соавторы приводят эффективность удаления ХПК 88,9 %, аммонийного азота 94,6 % и общего фосфора 61,6 % [3]. К особенностям MBR относятся удерживание биомассы в реакторе и отделение взвешенных частиц с помощью мембранного барьера. При практическом применении данной технологии необходимо учитывать энергопотребление, необходимость очистки мембран и риск их загрязнения, поскольку эти факторы влияют на эксплуатационные затраты.

В исследовании Liu и соавторов средние входные концентрации ХПК, аммонийного азота и общего фосфора составляли приблизительно 319, 60 и 10 мг/л соответственно, а выходные концентрации — 39,4, 1,3 и 0,8 мг/л [4]. По

этим значениям рассчитана эффективность удаления ХПК около 87,6 %, аммонийного азота — около 97,8 %, общего фосфора — около 92 %. Указанные значения являются дополнительными расчётами по опубликованным средним концентрациям и не представляют результаты собственного лабораторного эксперимента.

Таблица 1 — Сравнение опубликованных результатов очистки

Метод / источник	**ХПК, %**	**NH_4-N, %**	**Общий N, %**	**Общий P, %**
Гибридный биореактор с биоплёнкой [1]	91,5	96,5	60,9	—
Комбинированная система A/O-MBBR [2]	95,56	97,27	78,67	84,49
Мембранный биореактор [3]	88,9	94,6	—	61,6
«Биоплёнка — активный ил» [4]	≈87,6*	≈97,8*	—	≈92*

*Примечание: * значения рассчитаны по опубликованным средним входным и выходным концентрациям; «—» означает, что сопоставимый показатель в использованных данных не приведён. Из-за различий в условиях эксперимента таблица не является универсальным рейтингом технологий.*

Сопоставление показывает, что комбинированная система A/O-MBBR в рассмотренном исследовании имела наиболее высокие приведённые значения удаления ХПК и общего азота среди систем, для которых эти показатели указаны [2]. Однако по аммонийному азоту система «биоплёнка — активный ил» показала близкий к 98 % расчётный результат [4]. Следовательно, оценивать технологию только по одному показателю недостаточно: необходимо учитывать весь комплекс загрязняющих веществ, а также условия проведения эксперимента.

Кроме того, отсутствие отдельных показателей в некоторых публикациях ограничивает полноту сопоставления. Для объективного выбора технологической схемы желательно использовать единый набор показателей и сопоставимые условия испытаний, включая характеристики исходной воды, температуру, время пребывания и режим аэрации.

Выводы

1. Рассмотренные публикации показывают, что биоплёночные, мембранные и комбинированные биологические системы способны обеспечивать высокую степень удаления органических загрязнений и аммонийного азота.
2. В исследовании комбинированной системы A/O-MBBR приведены показатели удаления ХПК 95,56 %, аммонийного азота 97,27 %, общего азота

78,67 % и общего фосфора 84,49 % при конкретном экспериментальном режиме [2].

3. По средним концентрациям, приведённым Liu и соавторами, дополнительно рассчитана эффективность удаления ХПК около 87,6 %, аммонийного азота около 97,8 % и общего фосфора около 92 % [4].
4. Для оценки удаления соединений азота необходимо анализировать не только аммонийный азот, но и общий азот, поскольку снижение концентрации аммония само по себе не подтверждает полного удаления азота из сточной воды.
5. Выбор биотехнологии должен основываться на составе конкретных сточных вод, требуемом качестве очищенной воды, энергозатратах, устойчивости процесса и особенностях обслуживания оборудования.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Hou Y., Liu M., Tan X., Hou S., Yang P. Study on COD and nitrogen removal efficiency of domestic sewage by hybrid carrier biofilm reactor // RSC Advances. — 2021. — Vol. 11, № 44. — P. 27322–27332. — DOI: 10.1039/D1RA03286K.

2. Al-Aboodi A. H., Hassan A. A., Al-Shammari M. H. J. Performance of Combined A/O Moving-Bed Biofilm Reactors for Biological Nutrients Removal from Domestic Wastewater under Different Gas/Water Ratios // Journal of Engineering. — 2020. — Article 9632010. — DOI: 10.1155/2020/9632010.

3. Zhou Q., Zhou L., Gui S. Simultaneous Nitrogen and Phosphorus Removal in Domestic Wastewater Treatment by MBR Process // Energy Research and Management. — 2019. — № 3. — P. 36–38. — DOI: 10.16056/j.1005-7676.2019.03.010.

4. Liu J. X., van Groenestijn J. W., Doddema H. J., Wang B. Z., et al. Removal of nitrogen and phosphorus using a new biofilm-activated-sludge system // Water Science and Technology. — 1996. — Vol. 34, Issues 1–2. — P. 315–322. — DOI: 10.1016/0273-1223(96)00521-5.

7. URBANIZATION AND THE LIVING ENVIRONMENT: TRAFFIC CONGESTION, HOUSING, INFRASTRUCTURE AND ENVIRONMENTAL PRESSURES.

JADID PEDAGOGIK MEROSI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MA‘RIFIY-PEDAGOGIK QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Abdugofurova Ozoda
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
E-mail: azadaabdugafurova2@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadid pedagogik merosi asosida bo'lajak pedagoglarning ma‘rifiy-pedagogik qadriyatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Jadidchilikning ta'lim tizimidagi ahamiyati va uning zamonaviy pedagogikada qo'llanilishi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, pedagogika, ma'rifat, qadriyatlar, rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития просветительско-педагогических ценностей будущих педагогов на основе джадидского педагогического наследия. Анализируется значение джадидизма в системе образования и его применение в современной педагогике.*

Ключевые слова: *джадидизм, педагогика, просвещение, ценности, развитие.*

Abstract. *This article examines the issues of developing the enlightenment and pedagogical values of future teachers on the basis of Jadid pedagogical heritage. The importance of Jadidism in the education system and its application in modern pedagogy are analyzed.*

Keywords: *Jadidism, pedagogy, enlightenment, values, development.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish sharoitida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va bo‘lajak pedagog kadrlar salohiyatini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga va chuqur milliy ma’rifiy qadriyatlarga ega bo‘lishi zarur. Bu jarayonda o‘zbek xalqining boy milliy va tarixiy tajribasiga, xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadid pedagogik merosiga tayanish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakati nafaqat siyosiy-ijtimoiy uyg‘onish, balki eng avvalo ta’lim va ma’rifatni yangilash, milliy o‘zlikni anglash va millat tafakkurini yuksaltirish harakati edi [1].

Jadid pedagogik merosi O‘zbekiston ta'lim tarixida tub burilish yasagan noyob hodisadir. Ushbu meros o‘z davrining eng ilg‘or, innovatsion ta'lim usullari va insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalarini qamrab olgan. Ismoil G‘aspirali, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi buyuk jadid ma’rifatparvarlari ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishga intilib, o‘z davrida usuli jadid (yangi usul) maktablarini joriy etishga harakat qildilar [5]. Ular o‘z asarlarida o‘quvchilarning dunyoviy ilmlarni egallashi, mustaqil fikrlashi va tanqidiy yondashuvini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yishdi. Jadid ta'limining ushbu fundamental tamoyillari bugungi kun zamonaviy pedagogikasi uchun ham dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi [7].

Ma‘rifiy-pedagogik qadriyatlar ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar bo‘lajak pedagog shaxsining ma’naviy qiyofasini belgilovchi, ularning pedagogik faoliyatga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiruvchi tizimdir [3]. Ma‘rifiy-pedagogik qadriyatlar ta'lim jarayonida axloqiy, estetik, ilmiy va madaniy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ularning tub mohiyati shundaki, ular bo‘lajak o‘qituvchilarda va ularning bo‘lajak o‘quvchilarida o‘z-o‘zini anglash, kasbiy hamda ijtimoiy mas'uliyat, millat taqdiriga daxldorlik kabi muhim fazilatlarni tarkib toptiradi [6]. Pedagogik faoliyatda bu qadriyatlar o‘qituvchilarning metodik yondashuvlarini belgilab beradi va ta'limning tub sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ma‘rifiy-pedagogik qadriyatlarni bo‘lajak o‘qituvchilar ongiga singdirish orqali dars jarayonlarini yanada mazmunli, samarali va talabalar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish imkoniyati kengayadi.

Asosiy qism

Jadid pedagogik merosi o‘zining mustahkam va progressiv tamoyillari orqali ta'lim jarayoniga o‘z davrida katta yangilik va yuqori samaradorlik olib kirdi. Ushbu tamoyillar, eng avvalo, milliy qadriyatlar va ilg‘or jahon tajribalarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi [2]. Jadid pedagogikasi asosan quyidagi muhim tamoyillarga tayanadi:

– Ilmiy yondashuv va dunyoviy ilmlarning ustuvorligi: O‘quvchilarga diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix va tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlarni mukammal o‘rgatish.

– Individualizatsiya va bola shaxsiga hurmat: Har bir o‘quvchining yoshi, psixologik xususiyatlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda yondashish.

– Amaliyotga asoslangan ta'lim: Bilimlarni shunchaki yodlash (yodaki o‘qitish) emas, balki ularni hayotda, amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Jadid pedagoglarining eng buyuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy o‘zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning inson hayotidagi o‘rni haqida shunday yozadi: *“Tarbiya biz uchun ya hayot – ya mamot, ya najot – ya halokat, ya saodat – ya falokat masalasidur”*. Avloniyning ushbu fikri bugungi kun pedagoglari uchun ham o‘ta dolzarb bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarini, bolalarni sevish va ardoqlash qadriyatini rivojlantirishda muhim poydevor hisoblanadi.

Bo'lajak pedagoglarning ma'rifiy qadriyatlarini rivojlantirish bugungi kunda pedagogika universitetlari oldida turgan dolzarb vazifadir. Buning uchun oliy ta’lim jarayonida bir qator samarali va innovatsion strategiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir [4].

Birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash zarur. Talabalar universitetda olgan nazariy bilimlarini maktab môiitidagi jonli pedagogik jarayonlar, dars mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlar orqali mustahkamlashlari lozim. Jadidchilar ta’lim berish bilan bir qatorda maktablarda hunar o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida urg‘u berishgan.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida interfaol o'qitish usullari va muammoli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish lozim. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (case-study), rolli o‘yinlar, loyihaviy ta’lim va guruhlarda ishlash metodlari yordamida talaba-bo‘lajak pedagoglar o‘z fikrlarini erkin ifodalashni, pedagogik nizolarni oqilona hal etishni va tanqidiy fikrlashni o‘rganadilar. Bu esa ularda kasbiy mahorat bilan birga jamoada ishlash va hamkorlik madaniyatini oshiradi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek: *“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozimdur, zamona ilmidan bebahra millat boshqalarga poymal bo‘lur”*. Ushbu g‘oya asosida bo‘lajak pedagoglarda muttasil bilim olish va o‘z ustida ishlash qadriyatini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish lozim.

Zamonaviy pedagogikada jadid merosining qo‘llanilishi, oliy ta’lim mazmunini milliy va umumbashariy g‘oyalar bilan boyitish imkonini beradi. Bugungi kunda global ta'lim tendensiyalari, xususan, talabaga yo‘naltirilgan ta’lim (student-centered learning), mustaqil ta’lim va masofaviy o‘qitish tizimlari aslida jadidlar ilgari surgan "o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish" tamoyili bilan to‘la mos keladi. Jadid pedagogika talabalarni shunchaki tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlab topuvchi faol subyektga aylantirishni ko‘zda tutadi. Zamonaviy darslarda jadid allomlarining hayoti, asarlari va pedagogik qarashlarini keys-stadilar (muammoli vaziyatlar) sifatida o‘rganish bo‘lajak pedagoglarda milliy g‘urur, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini keskin oshiradi.

Xulosa

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida jadid pedagogik merosidan tizimli foydalanish bo'lajak pedagoglarning ma‘rifiy-pedagogik qadriyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning garovidir. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar zamonaviy innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar bilan qo‘shilganda talabalarning kasbiy motivatsiyasi va faol ishtirokini ta'minlaydi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy qadriyatlarini samarali shakllantirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

– Universitetlarning pedagogik fanlar dasturlariga jadid pedagogikasi va ularning darslik yaratish tajribalariga oid maxsus modullarni ko‘proq kiritish.

– O‘qitish uslublarini diversifikatsiya qilish, interaktiv metodlarni va raqamli ta’lim texnologiyalarini jadidlar ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirib joriy etish.

– Talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi hamda ularni pedagogik muammolarga yechim topishga undovchi erkin akademik muhit yaratish.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida, ta'lim jarayonida jadidlar pedagogik qarashlarini bugungi kunning onlayn va aralash ta’lim (blended learning) platformalariga integratsiya qilish usullarini tadqiq etish, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish loyihalarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, A. O'zbek pedagogikasining tarixi. — Tashkent : O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2020.
2. Ismatullayev, B. Jadidchilik va ta'lim. — Tashkent : Fan va texnologiyalar, 2019.
3. Karimov, D. Pedagogik qadriyatlar va ularning ahamiyati. — Tashkent : O'zbekiston milliy universiteti, 2021.
4. Mamatqulov, S. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar. — Tashkent : Ta'lim va innovatsiyalar, 2022.
5. Nurmatov, E. Jadid pedagogik merosi va uning zamonaviy ta'limdagi roli. — Tashkent : Ta'lim markazi, 2023.
6. Tursunov, R. Pedagogik faoliyatda qadriyatlar. — Tashkent : O'zbekiston ta'limi, 2020.
7. Yuldashev, M. Ta'limda innovatsiyalar va jadidchilik. — Tashkent : O'zbekiston davlat pedagogika universiteti, 2018.

10. LANGUAGE, CULTURAL HERITAGE AND VALUES IN A GLOBALIZING WORLD: GENERATIONAL GAPS, IDENTITY AND HERITAGE PRESERVATION.

XALQ AYTISHUVLARIDA MUSHOARA HODISASINING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

Abdurahmonova Mohinur
“University of economics and pedagogy”
NOTM o‘qituvchisi.
abdurahmonova.mohinur@bk.ru

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek folkloridagi yigit-qiz aytishuvlari misolida mushoara hodisasining poetik-dialogik tabiati o‘rganiladi. Aytishuvlarda she’riy javob, mazmuniy davomiylik, obrazlarni qayta talqin qilish, badihago‘ylik, badiiy e’tiroz va hazil-mutoyiba kabi shakllarning namoyon bo‘lishi nazariy qarashlar hamda folklor matnlari asosida tahlil qilinadi. O‘lan, lapar va baytbarak kabi dialogik janrlarning mushoaraviy xususiyatlari aniqlanib, og‘zaki she’riy muloqot bilan yozma adabiyotdagi mushoara an’anasi o‘rtasidagi mushtarak va farqli jihatlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, aytishuv, mushoara, o‘lan, lapar, baytbarak, she’riy muloqot, badihago‘ylik, poetik javob, dialogiklik.*

Аннотация. *В статье исследуется поэтико-диалогическая природа явления мушоара на материале песенных состязаний юношей и девушек в узбекском фольклоре. На основе теоретических положений и фольклорных текстов анализируются такие формы, как стихотворный ответ, смысловое продолжение, переосмысление образов, импровизация, художественное возражение и юмор. Выявляются особенности мушоара в жанрах улан, лапар и байтбарак, а также рассматриваются общие и отличительные черты устного поэтического диалога и традиции мушоара в письменной литературе.*

Ключевые слова: *узбекский фольклор, песенное состязание, мушоара, улан, лапар, байтбарак, поэтический диалог, импровизация, стихотворный ответ, диалогичность.*

Abstract. *This article examines the poetic and dialogic nature of mushoara in Uzbek folklore, focusing on poetic exchanges between young men and women. Drawing on theoretical approaches and folklore texts, it analyzes poetic response, semantic continuation, reinterpretation of imagery, improvisation, artistic opposition, and humor. The mushoara-related features of ulan, lapar, and baytbarak genres are identified, alongside the similarities and differences between oral poetic dialogue and the mushoara tradition in written literature.*

Keywords: *Uzbek folklore, poetic exchange, mushoara, ulan, lapar, baytbarak, poetic dialogue, improvisation, poetic response, dialogism.*

KIRISH. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi she’riy muloqotning turli shakllarini saqlab kelgan boy badiiy tizimdir. Uning tarkibidagi yigit-qiz aytishuvlari ijrochilarning navbatma-navbat she’r aytishi, bir-birining fikriga javob qaytarishi, obraz yoki mazmunni davom ettirishi bilan ajralib turadi. Bunday ijroda she’r bir ijrochining yakka ifodasi bo‘lib qolmay, o‘zaro munosabat jarayonida shakllanadigan dialogik matnga aylanadi. Aytishuvning musobaqaviy, hozirjavoblikka asoslangan tabiati uni mushoara hodisasi bilan qiyosiy o‘rganishga zamin yaratadi. Biroq folklordagi har qanday savol-javob yoki qo‘shiq almashinuvini mushoara deb atash to‘g‘ri emas. Mushoaraviylikni belgilashda javobning avvalgi she’riy fikr bilan mazmunan aloqadorligi, unga badiiy munosabat bildirishi va fikrni yangi yo‘nalishda rivojlantirishi asosiy mezon bo‘lishi lozim. Shu sababli mazkur maqolada mushoara folklor aytishuvlarining poetik-dialogik xususiyatini izohlovchi tahliliy tushuncha sifatida qo‘llanadi.

O‘lan va laparlar yigit-qizlar tarafma-taraf bo‘lib ijro etadigan, ko‘pincha ishqiy-maishiy kechinmalarni ifodalovchi aytishuv janrlaridir. Folklor janrlari tavsifida ularning so‘z musobaqasi, dialogik tuzilma va ijro vaziyati bilan bog‘liqligi qayd etiladi.[1] Laparlar ko‘pincha voqebandlikka moyil bo‘lsa, o‘lanlarda alohida bandlar muayyan kechinma yoki fikrni mustaqil ifodalashi mumkin. [2] Biroq har ikki janrda ham she’riy javobning mavjudligi ijrochilararo munosabatni yuzaga chiqaradi.

Mushoaraviylikning folklordagi ko‘rinishlarini tahlil qilish uchun quyidagi belgilarga tayanish mumkin:

1) she’riy replikalar o‘rtasidagi mazmuniy aloqa;
2) avvalgi fikrga javob, e’tiroz yoki davom berish;
3) obrazlarning qayta ishlanishi;
4) poetik vaziyatning rivojlanishi;
5) ijrochining badihago‘yligi va hozirjavobligi.

Ushbu belgilar mushoaraviy dialogni oddiy navbatma-navbat ijrodan farqlashga yordam beradi. Aytishuvlarning og‘zaki ijro muhiti muhim: she’rning mazmuni, ohangi va javob shakli ijrochilarning mahorati hamda vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin. Shu bois mushoaraviylik nafaqat matnning kompozitsion tuzilishida, balki ijro jarayonida ham namoyon bo‘ladi.

Baytbarak aytishuviga doir quyidagi namunada mushoara fonemenining xususiyatlarini kuzatishimiz mumkin:

Yigit: Sen tog‘ chumchuqi bo‘lib,

Soylarga qarab uchsang,
Men tog‘ kaptari bo‘lib,
Orqangdan quvib borsam,
Yor, unda na qilg‘aysan?

Qiz: Sen tog‘ kaptari bo‘lib,
Orqamdan uchib borsang,
Men uchar lochin bo‘lib,
Changalga olib qolsam,
Yor, unda na qilg‘aysan? [3]

Parchada yigit o‘zini “tog‘ kaptari”, qizni “tog‘ chumchuqi” obrazida tasavvur qilib, ta’qib va yaqinlashuv vaziyatini yaratadi. Qiz esa yigitning she’riy da’vosini aynan takrorlamaydi: “tog‘ kaptari” obrazini qabul qilib, o‘zini “uchar lochin” sifatida qayta belgilaydi. Natijada dastlabki vaziyat teskari yo‘nalishda rivojlanadi. Chumchuq-kaptar-lochin obrazlari qushlar olamiga oid tasavvurlarni ishqiy munosabat va kuchlar muvozanatini ifodalovchi poetik vositaga aylantiradi.

Mushoaraviylik bu misolda savolning qaytarilishidangina iborat emas. Qizning javobi yigit yaratgan obrazli vaziyatni davom ettirib, unga yangi badiiy yechim beradi. “Yor, unda na qilg‘aysan?” misrasining takroriy qo‘llanishi ikki replikani kompozitsion jihatdan bog‘laydi; “changalga olib qolsam” ifodasi esa dastlabki ta’qib tasvirini qarama-qarshi natijaga olib keladi. Demak, mazkur aytishuv obrazni qayta talqin etish, mazmuniy javob va poetik vaziyatni o‘zgartirishga asoslangan mushoaraviy shaklni namoyon etadi.

Shuningdek, lapar ijrochiligiga oid manbalarda yigit va qiz o‘rtasidagi ishqiy muloqot hamda she’riy sinov ko‘rinishlari qayd etiladi.[4]

Yigit: O‘lan, yor-yor, aytishuvlar xalqning,
Qishlog‘imiz keksalari o‘lan koni.
Bir oz katta olib aytsam sizga, do‘stlar,
Shu qoraqosh, mayiz nusxa mani jonim.

Qiz: O, xo aka, man mayizga o‘xshadimmi,
Sizga aytay o‘ylab qo‘ygan bir shartimni.
O‘lan aytib siz olsangiz gar ko‘nglimni,
Shuning bilan forig‘ aylang siz dardimni.

Yigitning “qoraqosh”, “mayiz nusxa” kabi xalqona ta’riflari ma’shuqaning tashqi ko‘rinishini maqtashga qaratilgan. Qizning javobi esa maqtovni passiv qabul qilmay, “bir shartimni” va “o‘lan aytib siz olsangiz gar ko‘nglimni” misralari orqali she’riy mahorat sinovini yuzaga keltiradi. Shu tariqa ishqiy izhor dialogning yangi

bosqichiga — shart qo‘yish va ijodiy sinashishga o‘tadi. Bu namunada mushoaraviylikning ishqiy-lirik hamda badiiy munosabat bildirish shakli kuzatiladi. Qiz yigitning so‘zini javob bilan rivojlantirib, aytishuvning g‘oyaviy yo‘nalishini maqtovdan poetik bellashuvga buradi. Javob she’riy muloqotning mustaqil mazmuniy bo‘g‘ini bo‘lib, umumiy kompozitsiyani davom ettiradi.

Yigit-qizlar she’riy muloqotining yana bir yaqin ko‘rinishi baytbarakdir. Jizzax hududidan yozib olingan baytbarak matnlarida qiz va yigitning replikalari ketma-ketligi voqeani bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Masalan, qiz o‘zini “Katta bog‘ning qizil guli” deb ta’riflagach, yigit uning “o‘ramoli”ga murojaat qilib, sovchi yuborish niyatini so‘raydi; qiz esa javobida yigit yuborgan sovchini boshqa kishiga bermaslik shartini ifodalaydi.[5] Bu turdagi matnlarda she’riy replika nafaqat avvalgi fikrga javob beradi, balki keyingi voqeani ham tayyorlaydi. Shu jihatdan baytbarakning mushoaraviy xususiyati mazmuniy davomiylik va dialog orqali voqebandlik hosil qilishda ko‘rinadi. Qiz va yigitning she’riy nutqi o‘zaro bog‘langan holda munosabatning yangi bosqichlarini ochadi. Aytishuvning musobaqaviy muhiti ijrochidan tezkor va topqir javobni talab qiladi. Bunday vaziyatda hazil, kinoya, mubolag‘a va qochirimlar she’riy javobning ta’sirchanligini kuchaytiradi. O‘lan ijrochilari o‘rtasidagi bellashuvda chechanlik, javob topish va raqibning she’riy da’vosiga munosabat bildirish ijro mahoratining mezoni bo‘lib xizmat qilgan.[6] Hazil-mutoyibaga asoslangan replika ko‘pincha dastlabki fikrni inkor etishdan ko‘ra, uni boshqa ma’noda talqin qiladi. Bunda javobning poetik samarasi yashirin ma’no va vaziyatga mos so‘z 3 tanlash orqali yuzaga keladi. Mushoaraviylikning ushbu shakli aytishuvni oddiy ishqiy qo‘shiqdan badiiy munozara va so‘z musobaqasi darajasiga olib chiqadi.

Tahlil qilingan namunalar o‘zbek folklor aytishuvlarida mushoaraviylik she’riy javob, mazmuniy davomiylik, obrazlarni qayta talqin qilish, ishqiy izhorni sinovga aylantirish, badihago‘ylik va badiiy e’tiroz orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Tog‘ chumchuqi, tog‘ kaptari va uchar lochin obrazlariga asoslangan aytishuvda javob dastlabki poetik vaziyatni teskari yo‘nalishda rivojlantiradi; ishqiy lapar namunasida esa qizning javobi maqtovni shartli she’riy bellashuvga aylantiradi. Baytbarakda dialog voqebandlikni yuzaga chiqaradi. Demak, folklor aytishuvlaridagi mushoaraviylikni aniqlashda janr nomining o‘zi emas, balki matn ichidagi poetik munosabat — javobning avvalgi fikrga bog‘lanishi, uni rivojlantirishi yoki qayta talqin etishi — asosiy mezon bo‘lishi kerak. Ushbu yondashuv xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi mushoara an’anasi o‘rtasidagi aloqalarni yanada aniqroq tadqiq etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi: oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Talqin, 2008. — 192 b.
2. Qosimov N. O‘zbek xalq laparlari (janr spetsifikasi va badiiyati). — Toshkent : Navro‘z, 2019. — 148 b.
3. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Aloqachi, 2008. — 560 b.
4. Ismoilova S. O‘zbek marosim qo‘shiqlaridan “O‘lan”ning etnik va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari // Tadqiqot va innovatsiyalar. — 2023. — 1(1). — B. 75–80.
5. Filologiya. Ilmiy axborotlar. — 2018. — 3-son (16). — B. 166.

GLOBALLASHUV VA RAQAMLI AXBOROT MUHITIDA YOSHLAR IRODASI HAMDA ERKIN TANLOVINING TRANSFORMATSIYASI

Absattorova Madinabonu Rustamovna
Renessans ta'lim universiteti, Ijtimoiy-siyosiy fanlar departamenti assistent-o'qituvchisi
E-mail: m.absattorova@renessans-edu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va raqamli axborot muhitining jadal kengayishi sharoitida yoshlarning axloqiy irodasi hamda erkin tanlov mexanizmlarida yuz berayotgan chuqur transformatsion o'zgarishlar ijtimoiy-falsafiy va aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi algoritmik tavsiyalar, raqamli manipulyatsiyalar va ommaviy madaniyat oqimlari ta'sirida subyektiv avtonomiyaning zaiflashuv sabablarini ochib berish hamda milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida yoshlarning ongli tanlov madaniyatini mustahkamlash yo'llarini asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-falsafiy, tizimli-aksiologik va fenomenologik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada raqamli makonda «soxta erkinlik» illuziyasining shakllanish omillari aniqlanib, avlodlararo qadriyatlar vorisiyligini ta'minlash orqali yoshlar irodaviy immunitetini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, raqamli axborot muhiti, yoshlar irodasi, erkin tanlov, subyektiv avtonomiya, algoritmik boshqaruv, milliy qadriyatlar, o'zlikni anglash.*

Аннотация. *В данной статье с социально-философской и аксиологической точек зрения анализируются глубокие трансформационные изменения, происходящие в моральной воле и механизмах свободного выбора молодежи в условиях глобализации и стремительного расширения цифровой информационной среды. Основная цель исследования заключается в выявлении причин ослабления субъективной автономии под воздействием алгоритмических рекомендаций, цифровых манипуляций и потоков массовой культуры, а также в обосновании путей укрепления культуры осознанного выбора молодежи на основе национально-духовных ценностей. В ходе исследования применялись сравнительно-философский, системно-аксиологический и феноменологический методы анализа. В результате определены факторы формирования иллюзии «ложной свободы» в цифровом пространстве и разработана концептуальная*

модель развития волевого иммунитета молодежи через обеспечение межпоколенческой преемственности ценностей.

Ключевые слова: *глобализация, цифровая информационная среда, воля молодежи, свободный выбор, субъективная автономия, алгоритмическое управление, национальные ценности, самоидентификация.*

Abstract. *This article analyzes the profound transformational shifts occurring in the moral will and mechanisms of free choice among youth amidst globalization and the rapid expansion of the digital information environment from a socio-philosophical and axiological perspective. The primary objective of the research is to uncover the causes behind the weakening of subjective autonomy under the influence of algorithmic recommendations, digital manipulations, and mass culture flows, as well as to substantiate pathways for strengthening a culture of conscious choice grounded in national and spiritual values. Comparative-philosophical, systemic-axiological, and phenomenological methods of analysis were utilized throughout the study. Consequently, the factors driving the illusion of "false freedom" in digital space were identified, and a conceptual model for developing youth volitional immunity by ensuring intergenerational value continuity was formulated.*

Keywords: *globalization, digital information environment, youth will, free choice, subjective autonomy, algorithmic governance, national values, self-identity.*

Kirish. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga, xususan, yosh avlodning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari hamda ijtimoiy xulq-atvoriga misli ko‘rilmagan darajada chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari nafaqat kommunikatsiya va bilim olish vositasi, balki shaxsning ichki ruhiy olami, qadriyatlar tizimi va hayotiy maqsadlarini shakllantiruvchi qudratli ijtimoiy-madaniy makonga aylandi. Ayniqsa, global tarmoqlar va ijtimoiy media platformalarining keng yoyilishi yoshlar oldida cheksiz axborot oqimi va xilma-xil turmush tarzlarini tanlash imkoniyatini yaratayotgandek ko‘rinsa-da, aslida ushbu jarayon inson irodasi va ixtiyor erkinligining mohiyatini tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Falsafiy tafakkur tarixida iroda va erkin tanlov muammosi hamisha insonning ma’naviy kamoloti hamda axloqiy mas’uliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan. Klassik falsafada erkin tanlov shaxsning aql-idrokka tayangan holda o‘z xatti-harakatlari oqibatini anglashi va ma’naviy burch asosida qaror qabul qilishi sifatida talqin etilgan bo‘lsa, raqamli axborot muhitida tanlov jarayoni ko‘proq tashqi algoritmik takliflar, lahzalik hissiy qo‘zg‘atuvchilar va iste’molchilik kayfiyatiga bo‘ysundirilmoqda. Natijada yoshlar ongida o‘zlikni anglash inqirozi, avlodlararo

ma’naviy uzilish hamda milliy-madaniy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kabi murakkab ijtimoiy-falsafiy muammolar yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida ham yoshlarni global axborot xurujlaridan himoya qilish, ularda mustaqil fikrlash, sog‘lom dunyoqarash va yuksak fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, globallashuv va raqamli axborot muhitida yoshlar irodasi hamda erkin tanlovining transformatsiyasini chuqur tahlil qilish, bu boradagi avlodlararo tafovutlar va qadriyatlar transformatsiyasining sabab-oqibatlarini aniqlash hamda milliy merosni asrashga qaratilgan zamonaviy falsafiy-pedagogik yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Globallashuv va raqamli axborot muhitining shaxs ichki olamiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qilishda eng avvalo «iroda» va «erkin tanlov» kategoriyalarining zamonaviy talqiniga e’tibor qaratish lozim. Nemis klassik falsafasi vakili I. Kant erkinlikni shaxsning tashqi tabiiy yoki ijtimoiy majburiyatlardan xoli ravishda o‘z-o‘ziga axloqiy qonun belgilay olish qobiliyati — avtonom iroda bilan bog‘lagan edi [1, b. 112]. Biroq XXI asrning raqamli voqeligida shaxsning ushbu ichki avtonomiyasi yashirin texnologik mexanizmlar orqali jiddiy sinovga duch kelmoqda. Zamonaviy mutafakkir E.Fromm ta’kidlaganidek, tashqi taqiqlar o‘rnini ichki psixologik moslashuv va ommaviy konformizm egallagan jamiyatda inson o‘zini mutlaqo erkin his qilgan holda, aslida begona xohish-istaklarni o‘ziniki deb qabul qila boshlaydi [2, b. 184].

Raqamli axborot muhitida yoshlar irodasining transformatsiyasi bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, «algoritmik determinizm» hodisasi yuzaga kelib, ijtimoiy tarmoqlar va qidiruv tizimlarining sun’iy intellekt algoritmlari foydalanuvchining qiziqishlari, hissiy zaifliklari va xulq-atvor modellarini oldindan bashorat qilgan holda unga ma’lum turdagi axborot oqimini taqdim etadi. Fransuz faylasuflari J.Delyoz va F.Gvattari tomonidan ilgari surilgan «rizoma» konsepsiyasiga ko‘ra, markazlashmagan tarmoq makonida ma’nolar va qadriyatlar qat’iy iyerarxiyadan mahrum bo‘lib, uzluksiz o‘zgaruvchan oqimlarga aylanadi [3, b. 29]. Bunday muhitda yoshlarning tanlovi chuqur tafakkur va qadriyatlar tahliliga emas, balki ekranda paydo bo‘layotgan tezkor stimullarga nisbatan refleksiv munosabatga asoslanib qolmoqda.

Ikkinchidan, raqamli makon va global ommaviy madaniyat ta’sirida yoshlarning vaqt va makon idrokida «klip tafakkuri» shakllanmoqda. Uzoq muddatli maqsadlar sari sabr-toqat, mashaqqat va irodaviy zo‘riqish bilan intilish o‘rniga tezkor natija, yengil ko‘ngilocharlik va lahzalik qoniqishga intilish ustuvorlik kasb etmoqda. Bu holat iroda kuchining zaiflashuviga, ya’ni shaxsning o‘z nafsi, hissiy

impulslari va tashqi axborot vasvasalari ustidan nazoratni yo‘qotishiga olib keladi. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy merosida komil insonning bosh mezoni sifatida nafsni aql va iroda jilovida tutish, ezgu maqsad yo‘lida sobitqadamlik ko‘rsatish g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa [4, b. 67], global raqamli iste’mol madaniyati esa aksincha, inson istaklarini sun’iy ravishda ko‘paytirish va ularni darhol qondirishga undaydi.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida axborot makonining bir xillashuvi (unifikatsiya) milliy til, madaniy meros va an’anaviy qadriyatlar tizimiga jiddiy bosim o‘tkazmoqda. Yosh avlod global tarmoqlardagi g‘arbcha yoki kosmopolit hayot tarzini «zamonaviylik va erkinlik» ramzi sifatida qabul qilib, milliy axloqiy me’yorlar, ota-onaga hurmat, mahalla va jamoatchilik oldidagi mas’uliyat kabi qadriyatlarni «cheklovchi omil» sifatida talqin qilishga moyil bo‘lib bormoqda. Natijada jamiyatda avlodlararo tafovut chuqurlashib, katta avlodning hayotiy tajribasi va ma’naviy o‘gitlari raqamli avlod tomonidan yetarlicha qabul qilinmayapti. Bu esa yoshlarning madaniy o‘zlikni anglash jarayonini murakkablashtirib, ularni global axborot manipulyatsiyalari oldida himoyasiz qoldirmoqda.

1-jadval. An’anaviy va raqamli axborot muhitida yoshlar irodasi hamda erkin tanlovining qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari	An’anaviy madaniy-ma’naviy muhit	Globallashgan raqamli axborot muhiti
Tanlovning asosiy manbai	Ichki axloqiy e’tiqod, aql-idrok, oilaviy tarbiya va milliy-madaniy meros	Algoritmik tavsiyalar, ijtimoiy tarmoq trendlari, vizual reklamalar va ommaviy madaniyat
Irodaviy faoliyat xususiyati	Uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan sabr-toqat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ma’naviy mas’uliyat	Qisqa muddatli lahzalik qoniqishga intilish, diqqatning tarqoqligi va impulsiv qarorlar
Erkinlik tushunchasining talqini	Burch va mas’uliyat bilan uyg‘unlashgan ongli avtonomiya, jamiyat manfaatlari bilan hisoblashish	Har qanday me’yor va an’analardan mutlaq xolilik sifatida tushuniladigan individualistik «soxta erkinlik»
O‘zlikni anglash va qadriyatlar	Avlodlararo vorisiylik, ona tili va tarixiy xotiraga tayangan barqaror identiklik	Gibrid va o‘zgaruvchan virtual identiklik, milliy qadriyatlardan uzoqlashish xavfi

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy va aksiologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli axborot muhitidagi transformatsiya jarayonlari ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, globallashuv va raqamli texnologiyalar yoshlarga jahon ilm-fani, madaniyati va ilg‘or tajribalaridan bahramand bo‘lish, o‘z salohiyatini xalqaro maydonda namoyon etish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ikkinchi tomondan esa, axborot iste’moli madaniyati va tanqidiy

tafakkur yetarli darajada shakllanmagan taqdirda, ushbu muhit yoshlarning ma'naviy irodasini falajlovchi «yumshoq kuch» vositasiga aylanib qolmoqda [5, b. 44].

Muhokama jarayonida aniqlangan eng muhim nazariy-amaliy xulosa shundan iboratki, raqamli davrda yoshlarning erkin tanlovini himoya qilish taqiqlash yoki axborot makonini sun'iy ravishda yopib qo'yish orqali emas, balki shaxsning ichki aksiologik tayanchini – ma'naviy-irodaviy immunitetini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi zarur. Buning uchun quyidagi uchta o'zaro bog'liq mexanizmni uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, raqamli va axborot savodxonligini axloqiy-falsafiy tarbiya bilan integratsiya qilish. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmik boshqaruv mexanizmlarini, manipulyativ kontent texnologiyalarini ongli ravishda anglab yetishlari lozim. O'z tanlovining tashqi ta'sir ostida shakllanayotganini anglagan shaxsdagina haqiqiy subyektiv refleksiya va tanqidiy fikrlash uyg'onadi.

Ikkinchidan, milliy madaniy meros, ona tili va tarixiy xotirani raqamli formatlarda zamonaviy, jozibador hamda interaktiv shakllarda taqdim etish. Avlodlararo tafovutni bartaraf etish uchun ajdodlarimizning boy ma'naviy-axloqiy merosi (xususan, adolat, halollik, sabr-toqat, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari) yoshlar muloqot qiladigan raqamli platformalarda sifatli kontent sifatida keng ommalashtirilishi kerak [6, b. 91]. Milliy o'zlikni anglash kuchli bo'lgan shaxs global madaniy oqimlar ichida o'z qiyofasini yo'qotmaydi, aksincha, ularni tanqidiy saralab qabul qiladi.

Uchinchidan, ta'lim tizimida va oilaviy muhitda yoshlarning irodaviy fazilatlarini rivojlantiruvchi amaliy faoliyat turlarini kengaytirish. Iroda faqat nazariy nasihatlar bilan emas, balki mustaqil qaror qabul qilish, uning ijtimoiy va axloqiy oqibatlari uchun javobgarlikni his etish, ijodiy hamda ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etish jarayonida toblanadi.

Xulosa. Globallashuv va raqamli axborot muhiti yoshlarning irodasi hamda erkin tanlov mexanizmlarini tubdan qayta shakllantirib, tashqi axborot tanlovi imkoniyatlarini kengaytirgani holda, ichki ma'naviy avtonomiyani zaiflashtirish xavfini tug'dirmoqda. Algoritmik tavsiyalar va ommaviy iste'mol madaniyati ta'sirida yuzaga kelayotgan «soxta erkinlik» illuziyasi yoshlarni milliy-madaniy ildizlardan uzoqlashtirib, avlodlararo qadriyatlar uzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu muammoning samarali yechimi yoshlarda tanqidiy raqamli tafakkurni rivojlantirish, irodaviy o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini tarbiyalash hamda milliy til, madaniy meros va ma'naviy qadriyatlarga tayangan mustahkam o'zlikni anglash tizimini qaror toptirishdan iboratdir. Zero, haqiqiy erkin tanlov – bu cheksiz

axborot oqimiga ergashish emas, balki yuksak ma’naviy qadriyatlar va axloqiy mas’uliyat asosida ongli qaror qabul qila olish salohiyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кант И. Критика практического разума / И. Кант ; пер. с нем. Н. М. Соколова. — Санкт-Петербург : Наука, 2007. — 528 с.
2. Фромм Э. Бегство от свободы / Э. Фромм ; пер. с англ. Г. Ф. Швейника. — М. : АСТ, 2016. — 288 с.
3. Делёз Ж. Тысяча плато: Капитализм и шизофрения / Ж. Делёз, Ф. Гваттари ; пер. с фр. Я. И. Свирского. — Екатеринбург : У-Фактория; — М. : Астрель, 2010. — 895 с.
4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри / Абу Наср Форобий ; тузувчи М. Маҳмудов. — Тошкент : Янги аср авлоди, 2016. — 320 б.
5. Бодрийяр Ж. Общество потребления. Его мифы и структуры / Ж. Бодрийяр; пер. с фр. Е. А. Самарской. — М. : Культурная революция, 2006. — 269 с.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Ш. М. Мирзиёев. — Тошкент : Ўзбекистон, 2022. — 416 б.

AXLOQIY ME'YORLAR O'Z-O'ZINI TASHKIL ETUVCHI MURAKKAB TIZIM (BARQARORLIK VA O'ZGARUVCHANLIK DIALEKTIKASI)

Muminov Sherzod Kamilovich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sh.muminov@fdu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari jadallashgan sharoitda axloqiy me'yorlar tizimining o'z-o'zini tashkil etuvchi murakkab sinergetik tizim sifatidagi mohiyati hamda undagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi madaniy meros, ona tili va milliy qadriyatlarning tizim barqarorligini ta'minlovchi o'zak (attraktor) sifatidagi funksiyasini aniqlash, shuningdek, avlodlararo tafovutlar va global axborot oqimlari ta'sirida yuzaga keladigan o'zgaruvchanlik mexanizmlarini asoslashdan iborat. Maqolada sinergetik, dialektik, tizimli va aksiologik yondashuvlardan foydalanilgan. Natijada axloqiy me'yorlarning milliy o'zlikni asragan holda zamonaviy sivilizatsiya talablariga moslashuv (adaptatsiya) modeli ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *axloqiy me'yorlar, o'z-o'zini tashkil etish, sinergetika, barqarorlik va o'zgaruvchanlik, dialektika, globallashuv, madaniy meros, qadriyatlar, o'zlikni anglash.*

Аннотация. *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется сущность системы моральных норм как сложной самоорганизующейся синергетической системы, а также диалектика устойчивости и изменчивости в условиях ускоряющейся глобализации. Цель исследования заключается в выявлении функции культурного наследия, родного языка и национальных ценностей как устойчивого ядра (аттрактора) системы, а также в обосновании механизмов изменчивости, возникающих под воздействием межпоколенческих различий и глобальных информационных потоков. В работе использованы синергетический, диалектический, системный и аксиологический подходы. В результате разработана модель адаптации моральных норм к требованиям современной цивилизации при сохранении национальной идентичности.*

Ключевые слова: *моральные нормы, самоорганизация, синергетика, устойчивость и изменчивость, диалектика, глобализация, культурное наследие, ценности, самоидентификация.*

Abstract. *This article provides a socio-philosophical analysis of the essence of moral norms as a complex self-organizing synergetic system and the dialectics of stability and variability amidst accelerating globalization. The research aims to identify the function of cultural heritage, native language, and national values as a stabilizing core (attractor) of the system, as well as to substantiate the mechanisms of variability driven by intergenerational gaps and global information flows. Synergetic, dialectical, systemic, and axiological approaches were employed in the study. Consequently, an adaptation model of moral norms to the demands of contemporary civilization while preserving national self-identity has been formulated.*

Keywords: *moral norms, self-organization, synergetics, stability and variability, dialectics, globalization, cultural heritage, values, self-identity.*

Kirish. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi insoniyat jamiyatining ma’naviy-axloqiy asoslariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda milliy madaniyatlar, an’anaviy qadriyatlar va avlodlararo axloqiy me’yorlar tizimi bir tomondan o‘zining tarixiy yaxlitligi hamda o‘ziga xosligini saqlab qolishga intilsa, ikkinchi tomondan global sivilizatsiya oqimlari ta’sirida uzluksiz yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu nuqtai nazardan, avlodlararo tafovutni yumshatish hamda milliy o‘zlikni anglash masalalarini hal etishda axloqiy me’yorlarni qotib qolgan dogmalar majmui sifatida emas, balki o‘z-o‘zini tashkil etuvchi murakkab dinamik tizim sifatida tadqiq etish muhim nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy me’yorlar tizimining hayotiyligi undagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning o‘zaro dialektik birligi bilan belgilanadi. Agar tizimda mutlaq turg‘unlik hukm sursa, u zamonaviy ijtimoiy munosabatlar va yosh avlod ehtiyojlariga javob bera olmay, inqirozga yuz tutadi; aksincha, me’yordan ortiq va nazoratsiz o‘zgaruvchanlik esa milliy madaniy meros, ona tili va ma’naviy o‘zlikning yemirilishiga olib keladi. Binobarin, axloqiy tizimning ichki o‘z-o‘zini boshqarish qonuniyatlarini ochib berish bugungi ijtimoiy falsafaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Asosiy qism. Zamonaviy postnoklassik fan metodologiyasi, xususan, sinergetika nazariyasiga ko‘ra, jamiyat va uning ma’naviy-axloqiy sohasi ochiq, nochiziqli va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi murakkab tizim hisoblanadi. Sinergetika asoschilaridan biri G. Xaken ta’kidlaganidek, murakkab tizimlarda tartib tashqi majburiy buyruqlar orqali emas, balki tizim elementlarining ichki kooperativ o‘zaro

ta’siri natijasida yuzaga keladi [1, b. 48]. Axloqiy me’yorlar ham jamiyat a’zolarining ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, tarixiy xotirasi, tili va diniy-ma’naviy qarashlari asosida o‘z-o‘zidan shakllanib, takomillashib boradigan ijtimoiy hodisadir.

